


Navoiy viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2021- yil yanvar - mart *(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)*

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini Navoiy viloyati hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Uchquduq tumanida 5 861,7 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 153,7 %), Zarafshon shahrida 5 545,1 ming so'mni (145,4 %), Konimex tumanida 3 967,7 ming so'mni (104,1 %), Navoiy shahrida 3 921,6 ming so'mni (102,9 %) tashkil etgan bo'lsa, aksincha Xatirchi tumanida 1 854,7 ming so'mni (48,6 %), Qiziltepa tumanida 1 864,8 ming so'mni (48,9 %), Gazg'on shahrida 1 924,6 ming so'mni (50,5 %), Nurota tumanida 1 954,1 ming so'mni (51,3 %), Navbahor tumanida 1 956,5 ming so'mni (51,3 %), Tomdi tumanida 2 323,1 ming so'mni (69,0 %), Karmana tumanida 2 798,9 ming so'mni (73,4 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.


Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi *(2021- yil yanvar-mart, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*



Viloyat bo'yicha 2021- yil yanvar - mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik ish haqi (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ulushi jamiga nisbatan: bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (170,8 %), sanoatda (139,3 %), qurilishda (123,9 %), axborotlashtirish va aloqada (77,8 %), tashish va saqlashda (67,9 %), ta'lim sohasida (57,1 %), savdoda (53,8 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (52,0 %), san'at, ko'ngil ochish va dam olishda (47,6 %), va boshqa yo'nalishlarda (74,2 %) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2021- yil yanvar - mart, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Yuridik shaxslarda xodimlar soni, ish haqi fondi va o'rtacha oylik ish haqi
2021- yil yanvar - mart
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni kishida	Ish haqi fondi, mln. so'mda	O'rtacha oylik ish haqi ming so'mda
Navoiy viloyati bo'yicha - jami	166 629	1 905 865,7	3 812,6
shu jumladan			
Sanoat	77 234	1 230 558,6	5 311,0
Qurilish	4 719	60 818,3	4 725,6
Savdo	1 695	10 052,2	2 050,0
Tashish va saqlash	1 894	12 495,6	2 587,6
Axborot va aloqa	669	5 877,1	2 967,3
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	2 002	39 106,8	6 511,3
Ta'lim	40 327	255 815,7	2 176,4
Sog'liqni saqlash va jtimoiy xizmatlar ko'rsatish	17 872	97 751,4	1 981,9
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1 053	5 440,6	1 814,1
Boshqa faoliyat turlari	16 216	137 653,0	2 829,6

Navoiy viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili
2021- yil yanvar - mart
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Sanoat sohasida 33 ta korxonada 77 234 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,4 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 230 558,6 mln. so'mni tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 5 311,0 ming so'mni tashkil etdi.



Ta'lim sohasida 675 ta muassasada 40 327 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 24,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 255 815,7 mln. so'mni tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 176,4 ming so'mni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 46 ta muassasada 17 872 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,7 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 97 751,4 mln. so'mni tashkil etgan. Hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 981,9 ming so'mni tashkil etdi.



Savdo sohasida 18 ta korxonada 1 695 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 10 052,2 mln. so'mni tashkil etgan. Savdo sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 050,0 ming so'mni tashkil etdi.



Qurilish sohasida 10 ta korxonada 4 719 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,8 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 60 818,3 mln. so'mni tashkil etgan. Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 4 725,6 ming so'mni tashkil etdi.

Axborot va aloqa sohasida 5 ta korxonada 669 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 5 877,1 mln. so'mni tashkil etgan. Axborot va aloqa sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 967,3 ming so'mni tashkil etdi.



Tashish va saqlashda 11 ta korxonada 1 894 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,1 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 12 495,6 mln. so'mni tashkil etgan. Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 587,6 ming so'mni tashkil etdi.



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 40 ta muassasada 2 002 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 39 106,8 mln. so'mni tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 6 511,3 ming so'mni tashkil etdi.

Boshqa faoliyat turlarida 329 ta korxonada 16 216 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 9,7 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 137 653,0 mln. so'mni tashkil etgan. Boshqa faoliyat turlarida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 829,6 ming so'mni tashkil etdi.



**Navoiy viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)

	<i>yanvar</i>	<i>fevral</i>	<i>mart</i>	<i>yanvar-mart</i>
Navoiy viloyati	3 701,3	3 774,9	3 960,0	3 812,6
Navoiy sh.	3 797,5	3 826,8	4 139,7	3 921,6
Zarafshon sh.	5 432,9	5 572,7	5 627,1	5 545,1
Gazg'on sh.	1 784,9	1 986,7	2 006,3	1 924,6
Karmana t.	2 632,8	2 715,0	3 045,9	2 798,9
Konimex t.	3 905,6	3 873,0	4 121,2	3 967,7
Qiziltepa t.	1 804,7	1 864,4	1 924,1	1 864,8
Navbahor t.	1 897,7	1 992,0	1 979,2	1 956,5
Nurota t.	1 839,2	1 990,9	2 031,2	1 954,1
Tomdi t.	2 104,2	2 279,0	2 585,4	2 323,1
Uchquduq t.	5 811,0	5 858,1	5 919,9	5 861,7
Xatirchi t.	1 772,3	1 862,2	1 927,6	1 854,7

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021- yil fevral oyida 747,3 ming so'mni tashkil etgan, Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 16- sentyabrdagi 775- sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3- razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**Navoiy viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari,

